

Shoira Komilova, Shaxnoza Kasimova

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH LOYIHALARINI SAMARALI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston uchun mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash, aholi jumladan, xotin-qizlar bandligi va ishsizlik muammolari bandligini ta'minlash bo'yicha fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, islohotlarni faol ishtirokchisi bo'lgan xotin-qizlar bandligi muammosini o'rganish, mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: bandlik, ishsizlik, bozor islohotlari, demografik jarayonlar.

ПЕРСПЕКТИВЫ ЭФФЕКТИВНОЙ РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТОВ ЗАНЯТОСТИ ЖЕНЩИН

Аннотация. В данной статье приводятся мнения по обеспечению занятости населения трудоспособного возраста Узбекистана, обеспечению занятости населения, в том числе женщин, и проблемам безработицы. Также были выдвинуты предложения по изучению проблемы трудоустройства женщин, являющихся активными участницами реформ, по улучшению условий труда.

Ключевые слова: занятость, безработица, рыночные реформы, демографические процессы.

PROSPECTS FOR EFFECTIVE IMPLEMENTATION OF WOMEN'S EMPLOYMENT PROJECTS

Abstract. This article provides opinions on providing employment to the working-age population for Uzbekistan, providing employment to the population, including women, and unemployment problems. Also, proposals were put forward to study the problem of employment of women who are active participants in the reforms, to improve working conditions.

Key words: employment, unemployment, market reforms, demographic processes.

Kirish

O‘zbekistonda bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, samarali ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, biznesni tashkil etish va yuritish shartlarini baholashning zamonaviy mezonlari tizimini joriy etish, shu asosda mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish yo‘lida barqaror taraqqiyot uchun mustahkam poydevor yaratildi. Aholi farovonligi, birinchi navbatda, yangi ish o‘rinlarining mavjudligi, bandlikning oshishi bilan tavsiflanadi[1, 5-b]. Shu munosabat bilan, iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirishning dolzarb muammolardan biri mehnat bozorini samarali shakllantirish hamdarivojlantirish hisoblanadi. Buning uchun, avval ijtimoiy va iqtisodiy tizimlar rivojlanishining ob‘ektiv qonunlaridan yuqori darajada foydalanish zarur. Ma’lumki, taraqqiyot sohibi bo‘lgan inson – jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchi hamdir. U bir vaqtning o‘zida moddiy boyliklar va xizmatlarning ham ishlab chiqaruvchisi, ham iste’mol qiluvchisi bo‘lganligi sababli, “ishlab chiqarish – iste’mol” tizimida muvozanatga erishiladi[2, 3-b].

Adabiyotlar sharhi

Yurtimizda xotin-qizlarning qo‘llab-quvvatlanayotganligi va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashib borayotganligini quyidagi O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarida ham o‘z aksini topadi. Bunga birinchidan, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta‘minlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligi oshib borayotganligi, ikkinchidan, xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, shu jumladan, nogironligi bo‘lgan ayollarning manzilli ro‘yxatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatilayotganligi, uchinchidan, xotin-qizlarning bandligini ta‘minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlik va hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama manzilli qo‘llab-quvvatlanayotganligi, to‘rtinchidan, xotin-qizlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, birinchi navbatda, huquqbuzarlikka moyilligi bo‘lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish hamda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi va moslashishi bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqin hamkorlikni o‘rnatib, ish olib borayotganligini misol qilib ko‘rsatish mumkin[6, 15-b].

Shu o‘rinda alohida ta‘kidlash joizki, mustaqillikka erishilgan ilk yillarda respublika moddiy va nomoddiy sohalarda ishlab chiqarish hajmining keskin qisqarishi va boshqa bir qator omillarning kuchli ta‘siri ostida mehnat bozorida ishchi kuchiga talab benihoya pasayib ketdi. Ayniqsa, rejali iqtisodiyotning aholi to‘la bandligi

to'g'risidagi soxta g'oyalarini ro'yobga chiqarish poligoni bo'lgan va ko'p mehnat resurslari nomigagina ish bilan ta'minlangan qishloq xo'jaligida nisbiy ortiqcha ish o'rinlarini qisqartirish hisobidan vujudga kelgan ishsizlik juda fojiali tus oldi. Islohotlarning dastlabki bosqichlarida sobiq tizimdan og'ir meros tekkan va murakkab, o'ta murakkab demografik jarayonlarni boshidan kechirayotgan mustaqil O'zbekiston uchun mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash, aholi bandligi va ishsizlik muammolari eng og'ir, eng ziddiyatli, eng dolzarb va birinchi navbatda yechilishi lozim bo'lgan muammolardan biriga aylandi. Bu jarayonda, islohotlarni faol ishtirokchisi bo'lgan xotin-qizlar bandligi muammosini o'rganish davr talabi hisoblanadi. Chunki davlatning iqtisodiy taraqqiyoti aholining bandligi va ularning munosib turmush darajasi bilan baholanadi. Xotin-qizlar bandligi tushunchasi va uning mohiyatini o'rganishda birinchi navbatda "bandlik" tushunchasi va uning respublikadagi xotin- qizlarga tegishli ulushini tahlil etish kerak bo'ladi. Bandlik tushunchasi yoki aholini ish bilan ta'minlash deganda mehnatgalayoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi, fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadiga ega bo'lgan faoliyat tushuniladi[3, 1-b].

Tahlil va natijalar muhokamasi

Bandlik – bu mehnat va mehnatdan foydalanish bilan aniqlab bo'lmaydigan ijtimoiy takror ishlab chiqarish toifasi. U iqtisodiy faol aholini ishlab chiqarishning moddiy omillariga nisbatan tavsiflaydi va odamlar o'rtasidagi ularning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ishtiroki haqidagi munosabatlarni aks ettiradi. Shaxsiy xodim darajasida bandlik uning ish joyiga ega ekanligini anglatadi va shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va daromad (mehnat daromadi) olish bilan bog'liq faoliyat sifatida

belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi qonunida[4, 8-b] bandlik kengroq, ish bilan ta’minlanish – fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan, o‘z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatidir. Fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan, mehnat daromadi keltiradigan ijtimoiy foydali faoliyatlari sifatida baholanadi. Bandlikning ushbu tavsifi uning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini ifodalaydi.

An’anaga ko‘ra, bandlik deganda ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etish tushuniladi. Ayollarga kelsak, “ikki tomonlama bandlik” tushunchasi ko‘pincha ishlatiladi. Bu ayollarni oilaviy va maishiy sohada hamda jamoat ishlab chiqarishida ish bilan ta’minlashni anglatadi. Ayollar uchun uchta ish varianti mavjud[5, 3-b]:

1. Davlat ishlab chiqarishida to‘liq bandlik.
2. Jamoat ishlab chiqarishida yarim kunlik ish.
3. oilaviy va maishiy bandlik.

Ayollar uchun har bir ish varianti professional va oilaviy-maishiy soha o‘rtasidagi har xil nisbatni anglatadi. Birinchi holda "ish", kasbiy majburiyatlarning ustuvorligini nazarda tutadi. Ikkinchi holda – hayotning ikki sohasi, bandlikning ikki sohasi: “ish” va “uy”ning eng samarali kombinatsiyasi variantidir. Uchinchisi – “uy”, oilaviy va maishiy majburiyatlarning ustuvorligi.

Davlat ishlab chiqarishida yarim kunlik ish bilan ta’minlash varianti ayollar uchun ham, umuman jamiyat uchun ham bir qator afzalliklarga ega. Asta- sekin, bu ayollarni ish bilan ta’minlashning asosiy, ustun variantiga aylanadi.

Yarim kunlik bandlik – bu mehnatdan foydalanish tizimi bo‘lib, unda ish

vaqtining davomiyligi ma'lum bir tashkilot yoki sohada qandaydir bir faoliyatturi yoki kasbi uchun belgilangan me'yordan sezilarli darajada past bo'ladi. Yarim vaqtda ish bilan ta'minlash yarim vaqtda ishlashni, moslashuvchan ish vaqtdan keng foydalanishni, uyda ishlashni, bitta vazifani ish joyida bir nechta ishchilar bajarganda "umumiy ish joyi" tizimini joriy etishni o'z ichiga oladi[6, 35-b].

1-jadval

Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soninig jami aholi soniga nisbatan ulushi[7]

| Hudud | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|-------------------------------|------|------|------|------|------|
| O'zbekiston Respublikasi | 59,2 | 58,6 | 57,9 | 57,2 | 57 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 60,1 | 59,8 | 59,4 | 59,1 | 59,1 |
| Andijon viloyati | 59,2 | 58,4 | 57,5 | 56,7 | 56,5 |
| Buxoro viloyati | 60,3 | 59,6 | 59 | 58,3 | 58,1 |
| Jizzax viloyati | 58,5 | 57,8 | 57,2 | 56,5 | 56,3 |
| Qashqadaryo viloyati | 58,8 | 58,1 | 57,4 | 56,6 | 56,3 |
| Navoiy viloyati | 60,1 | 59,4 | 58,7 | 58 | 57,8 |
| Namangan viloyati | 59,8 | 59 | 58,2 | 57,3 | 56,9 |
| Samarqand viloyati | 58,1 | 57,4 | 56,7 | 56,1 | 55,9 |
| Surxondaryo viloyati | 58,8 | 58,1 | 57,3 | 56,5 | 56,1 |
| Sirdaryo viloyati | 60,7 | 60,1 | 59,5 | 59 | 58,9 |
| Toshkent viloyati | 59,1 | 58,7 | 57,9 | 57,2 | 57 |
| Farg'ona viloyati | 59,5 | 58,8 | 58,1 | 57,3 | 57 |
| Xorazm viloyati | 60,2 | 59,8 | 59,4 | 59,1 | 59,1 |
| Toshkent shahri | 58,1 | 57,4 | 57,4 | 57,1 | 57,1 |

1-jadval ma'lumotlarida mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soninig jami aholi soniga nisbatan ulushi tahlil etilgan bo'lib, respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 2023-yilda 57 foizni tashkil etgan. Eng yuqori ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida kuztilgan bo'lsa, eng quyi qiymat Samarqand viloyatida bo'lgan.

2-jadval

30-34 yoshli doimiy aholi soni-Ayollar[7]

| Hudud | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 |
|-------------------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| O'zbekiston Respublikasi | 1482564 | 1504692 | 1521367 | 1545440 | 1558448 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 86701 | 87515 | 89003 | 91476 | 91096 |
| Andijon viloyati | 129950 | 131470 | 133311 | 136186 | 138840 |
| Buxoro viloyati | 86607 | 87043 | 87355 | 88053 | 88210 |
| Jizzax viloyati | 60297 | 61490 | 63790 | 65037 | 66229 |
| Qashqadaryo viloyati | 145596 | 148178 | 148063 | 150332 | 151728 |
| Navoiy viloyati | 45371 | 46114 | 45658 | 46345 | 46825 |
| Namangan viloyati | 119283 | 122230 | 125648 | 128557 | 131236 |
| Samarqand viloyati | 168762 | 170957 | 172885 | 175230 | 177464 |
| Surxondaryo viloyati | 115195 | 118342 | 119779 | 122400 | 123084 |
| Sirdaryo viloyati | 42221 | 43396 | 43287 | 43571 | 43201 |
| Toshkent viloyati | 130089 | 132111 | 132623 | 129031 | 127401 |
| Farg'ona viloyati | 158811 | 161398 | 162801 | 166247 | 169857 |
| Xorazm viloyati | 83825 | 83610 | 83616 | 84071 | 85026 |
| Toshkent shahri | 109856 | 110838 | 113548 | 118904 | 118251 |

2-jadval ma'lumotlarida respublikada 30-34 yoshli doimiy aholi soni(ayollar) ko'rsatkichlari tahlil etilgan. Respublika bo'yicha 2023-yilda jami 1558448 nafar 30-34 yoshli ayollar istiqomat qilgan.

3-jadval

Ayollarning o'rtacha ta'lim davomiyligi 25 yosh va undan kattalar[7]

| Yillar | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
|--------------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|
| O'zbekiston Respublikasi | 12,3 | 12,3 | 12,5 | 12,5 | 12,5 | 12,6 | 12,6 | 12,5 | 12,4 |

2-jadval ma'lumotlarida respublikada ayollarning o'rtacha ta'lim davomiyligi 25 yosh va undan kattalar uchun tahlil aks etgan. Yillar kesimida ko'rish mumkinki,

ayollarning oʻrtacha taʼlim davomiyligi 12,5 yilga toʻgʻri keladi.

Xotin-qizlar bandligi muhim iqtisodiy ahamiyatga ega boʻlib, jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Ayollar bandligining iqtisodiy ahamiyatini koʻrsatadigan bir nechta jihatlar:

Umumiy YaIMning oʻsishi: Ayollar oʻrtasida bandlik darajasini oshirish jamiyatning umumiy yalpi ichki mahsulotini (YaIM) oshirishga yordam beradi. Xotin-qizlarning koʻproq ishlashi samaradorlikni oshiradi va iqtisodiyotga hissa qoʻshadi.

Oila farovonligini oshirish: Ayollarning ish haqidagi oladigan qoʻshimcha daromadlari oilaning moddiy ahvolini yaxshilaydi. Bu oʻzingiz va farzandlaringizni taʼminlash, taʼlim, sogʻliqni saqlash va boshqa zarur xizmatlardan foydalanish imkoniyatini taʼminlash imkonini beradi.

Qashshoqlikni kamaytirish: Mehnatkash ayollar jamiyatda qashshoqlikni kamaytirishga hissa qoʻshadi. Xotin-qizlarning bandligi ularning iqtisodiy mustaqil boʻlishi, oʻzini va oilasini boqish imkonini beradi.

Isteʼmolchi talabini ragʻbatlantirish: Ayollarning bandlikdan oladigan qoʻshimcha daromadlari isteʼmol talabini ragʻbatlantiradi, bu esa iqtisodiy oʻsishga, tadbirkorlikni rivojlantirishga, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni koʻpaytirishga yordam beradi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish: Xotin-qizlarning tadbirkorlikdagi faol ishtiroki tadbirkorlikni rivojlantirish, innovatsiyalar yaratish, yangi ish oʻrinlari yaratish va iqtisodiy oʻsishga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash: Xotin-qizlar bandligini oshirish jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va tenglikni taʼminlaydi, ijtimoiy tengsizlikni kamaytiradi va xalqaro hamjamiyat rivojiga xizmat qiladi.

Ayollar bandligini oshirish nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki ijtimoiy

rivojlanishga yordam beradi, gender tengligini mustahkamlaydi va butun jamiyatning yanada barqaror va farovonligini ta'minlaydi.

Xotin-qizlar bandligini ta'minlash bo'yicha loyihalarni samarali amalga oshirish mehnat bozorida teng imkoniyatlar yaratishning muhim vazifasidir. Bunday loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradigan ba'zi istiqbollari:

1. Teng imkoniyatlarni rag'batlantirish: Ishda ayollar uchun teng imkoniyatlarni rag'batlantirishga qaratilgan dasturlar va tashabbuslar kamsitishlarni kamaytirishga va ularning ish joylariga kirish imkoniyatini oshirishga yordam beradi.

2. Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish: Ayollarning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlari va kurslarini tashkil etish ularning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga yordam beradi hamda raqobatbardoshligini oshiradi.

3. Qo'llab-quvvatlovchi ish muhitini yaratish: Tashkilotlar ish joyidagi ayollar uchun teng sharoit yaratishi mumkin, jumladan, moslashuvchan ish soatlari, stereotiplarga qarshi dasturlar va onalikni qo'llab-quvvatlash.

4. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash: o'qitish, amaliyot o'tash va yakka tartibdagi tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlashga davlat hamda xususiy sarmoya kiritilishi bandlik darajasini yaxshilashga yordam beradi.

5. Natijalarni monitoring qilish va baholash: Strategiyalarni samarali o'zgartirish va belgilangan maqsadlarga erishish uchun ayollar bandligini ta'minlash bo'yicha loyihalar natijalarini muntazam ravishda monitoring qilish va baholash muhim ahamiyatga ega.

Bu istiqbollari xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga ko'maklashib, yanada inklyuziv va teng huquqli

jamiyatni yaratishga hissa qo‘shishi mumkin.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, xotin-qizlar bandligi tushunchasi ularning u yoki bu sohada bandligi va o‘z daromad manbaiga ega ekanligini anglatadi. Xotin-qizlar bandligi tushunchasining mohiyati esa mamlakat miqyosida ularning ulushi bilan izohlanadi. Chunki yuqorida ta’kidlaganimizdek, har qaysi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti fuqarolarning bandligiga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Bu jarayonda aholining 50 foizini tashkil yetadigan xotin-qizlar bandligi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi pozitsiyasi o‘z navbatida mamlakat taraqqiyotini ta’minlovchi omil sifatida yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Zaxarova, G. M. O‘zbekistonda xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash masalalari / G. M. Zaxarova. - Matn:to‘g‘ridan-to‘g‘ri // yosh olim. 2016. - № 21.1 (125.1). - PP. 24-27. - URL: <https://moluch.ru/archive/125/34586/> / (kirish: 08/19/2023).
2. Xolmo‘minov Sh.R. Qishloq mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi hamda ularni modellashtirish(monografiya). – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2014. – B.9-10.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. “Bandlik”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – B. 667.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-642sonli, 4-modda. 20.10.2020.<https://lex.uz/docs/>.



5. Muxammedov M.M., Isxakova S.A., Mardonov B.B. Qishloqlarda aholi bandligi: muammolar va yechimlar. – Samarqand: “Zarafshon” nashriyoti, 2014. – B. 7.

6. Mirzakarimova M. Milliy iqtisodiyotda bandlik tarkibini takomillashtirishning ilmiy-nazariy jihatlari. – B. Iqtisod fanlari doktori (Dsc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2018. – B.79.

7. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>